



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 13-mart, № 51 (8946)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON VA FRANSIYA MUNOSABATLARINI STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO'TARGAN TARIXIY TASHRIF

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Fransiya Respublikasida bo'lib turibdi.



12-mart kuni Parijdagi Faxriylar uyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Mamlakatimiz yetakchisini Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron kutib oldi.

Maydonda oliy martabali mehmon sharafiga Fransiya Respublika gvardiyasi, quruqlik qo'shinlari, harbiy-dengiz va harbiy-havo kuchlari xizmatchilaridan iborat faxriy qorovul saf tortdi.

Harbiy orkestr ijrosida ikki mamlakat madhiyalari yangradi. Gvardiyachilar davlatimiz rahbari oldidan tantanali yurib o'tdi. Prezidentlar faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar va rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

So'ng davlatimiz rahbari otliq gvardiyachilar va mototsiklchilar hamrohligida oliy darajada muzokara o'tkazish uchun Fransiya Prezidentining qarorgohi — Yelisey saroyiga yo'l oldi.

Yelisey saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning muzokaralari bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari ko'p qirrali O'zbekiston — Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini yuzma-yuz va delegatsiyalar ishtirokida atroflicha muhokama qildilar.

Ikki mamlakat yetakchilarining 2023-yil noyabr oyida Samarqand shahrida o'tgan uchrashuvi davomida erishilgan kelishuvlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turi darajalarda yul muloqotlar davom etmoqda. O'tgan yilda tovar ayirboshlash hajmi ikk barobar oshib, qo'shma korxonalar soni 4 barobar ko'paydi.

Yurtimizda Fransiyaning "Orano", "EDF", "Total", "SUEZ", "Veolia" va ko'plab boshqa yetakchi kompaniyalari muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik yangi sifat kasb etdi, u bilan yangi Hamkorlik dasturi qabul qilinmoqda.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va "MEDEF" biznes missiyasi samarali o'tdi, Ishbilarmonlar palatasi o'z ishini boshladi.

Shu kunlarda Parij, Tuluza, Lion va Nissa shaharlarida hududlarning faol ishtirokida qo'shma tadbirlar o'tkazilmoqda. Kuni kecha qo'shma tibbiyot forumi hamda fan va ta'lim bo'yicha konferensiya, O'zbekistonning turizm salohiyati va madaniyatga bag'ishlangan taqdimotlar o'tkazildi. Grets-Armenvil shahrida buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy byusti ochildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyaning yetakchi kompaniyasi va korxonalar bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Bu galgi sammitga yangi Innovatsiya va sanoat sherikligi dasturi tayyorlangan. Muhim mineral xomashyo resurslarini

qazib olish va qayta ishlash, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport va boshqa tarmoqlarda umumiy qiymati 6,5 milliard yevrolik qo'shma loyihalarni ilgari surish ko'zda tutilgan.

Umuman, qo'shma loyihalar portfeli 12 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda. Shu ma'noda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yil iyun oyida Toshkent investitsiya forumi doirasida o'tkazishni taklif etdi.

Hududlararo aloqalarni rag'batlantirish maqsadida kelgusi yilda Samarqand shahrida ikki mamlakat hududlarining birinchi forumini o'tkazishga kelishib olindi.

Yetakchilar gumanitar yo'nalishdagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Parij shahrida Savitskiy muzeyi to'plamidagi avangard asarlar ko'rgazmasini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha hamkorlik uchun mamlakatimizda Fransiya merosi instituti vakolatxonasini ochish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Joriy yilda Toshkent shahrida Fransiyaning tajribali mutaxassislarini jalb qilgan holda O'zbekiston —Fransiya universiteti ochilishi ta'lim sohasidagi asosiy kelishuv bo'lgani ta'kidlandi. Fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash sohasida ham samarali hamkorlik davom ettiriladi.

Ishbilarmonlik, turizm va madaniy almashuvlarni faollashtirish maqsadida tomonlar to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar sonini ko'paytirish masalasini ko'rib chiqadilar.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Ko'p tomonlama tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kibernetika va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani ta'kidlandi.

Tizimli muloqotni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish maqsadida tashqi ishlar vazirliklari boshchiligidagi iqtisodiy idoralarni jalb qilgan holda Strategik rejalashtirish guruhini tuzishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida tarixiy qarorga keldilar.

Uchrashuv yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronni o'zi uchun qulay vaqtida javob tashrifi bilan O'zbekistonga kelishga taklif etdi.

Parij shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida Mutaxassislar va talabalar harakatchanligi to'g'risidagi hukumatlararo bitim, Diplomatik pasport egalari viza talablaridan o'zaro ozod qilish to'g'risidagi hukumatlararo bitim hamda Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan O'zbekistonda 6,5 milliard yevrolik istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Investitsiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik dasturi almashildi.

Davlat tashrifi davomida quyidagilar ham imzolandi:

— O'zbekiston — Fransiya universitetini tashkil etish to'g'risida hukumatlararo bitim;
— Readmissiya to'g'risida hukumatlararo bitim;
— Tashqi ishlar vazirliklarining 2025-2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi;

— 2026 — 2030-yillarda Fransiya taraqqiyot agentligi bilan hamkorlik dasturi;
— Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

— Sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

— Fransuz tilini o'qitishni kengaytirish to'g'risida bayonnomasi;

— Musiqa, kino va teatr sohalarida hamkorlik to'g'risida deklaratsiya;

— Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o'rtasidagi hamkorlik bitimlari;

— Toshkent va Parij shaharlari o'rtasida sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida bayonnomasi va boshqa ikki tomonlama hujjatlar.

Yelisey saroyidagi oliy darajadagi uchrashuv chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emmanuel Makronga buyuk fransuz yozuvchisi Viktor Gyugonning o'zbek tiliga tarjima qilingan "Kulayotgan odam" romanining ilk nusxasini sovg'a qildi.

Ushbu kitob ommaviy nashrdan chiqishi va tez orada kitobxonlar e'tiboriga havola etilishi kutilmoqda.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya ishblarmon doiralari yetakchi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari 2018 va 2022-yillarda ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi hamda 2023-yilgi Samarqand sammitida ham Fransiya tadbirkorlari bilan uchrashgan edi.

Forum ana shu ochiq va konstruktiv muloqotning davomi bo'ldi. Bu galgi uchrashuv unda O'zbekistonning xususiy kompaniyalari rahbarlari va vakillari ham ishtirok etgani bilan ajralib turadi.

Tadbirida Fransiyaning tashqi savdo va xorijdagi fransuz fuqarolari ishlab bo'yicha vazir-delegati Loran Sen-Marten, Fransiya taraqqiyot agentligi bosh direktori Remi Riu, "MEDEF International" rahbari — "Orano Mining" kompaniyasi boshqaruvi raisi Klod Imoven, shuningdek, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari, investitsiya va bank-moliya institutlarining 60 dan ortiq rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.

Fransiya biznesi tomonidan "SUEZ",

"Veolia", "Total", "EDF", "Veolia", "Orano", "Meridiam", "Saint-Gobain", "Imerys", "Natixis", "Societe Generale", "BPI France", "Airbus", "MND", "Eiffage", "Schneider Electric", "Total Energies", "Alstom", "Technip Energies", "Egis", "ADP Group", "Ellipse Projects", "Assystem", "ATR" va boshqa kompaniyalar qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron bilan o'tgan samarali muzokaralarni yuksak baholab, ishblarmonlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va qo'shma kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidladi.

Uchrashuvning asosiy natijasi sifatida O'zbekiston — Fransiya munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga ko'tarish haqida tarixiy qaror qabul qilindi.

Ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari muhim o'rinni tutayotgani qayd etildi.

Fransiya ishblarmon doiralari vakillariga yangi O'zbekistondagi o'tsiga qaytmas iqtisodiy islohotlar strategiyasini qo'llab-quvvatlayotgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Joriy yil yanvar oyida "MEDEF" tarkibidagi yirik kompaniyalar rahbarlarining Toshkent shahriga tashrifi natijalari yuksak baholandi.

Fransiya kompaniyalari bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmoqlarida qator qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ushbu mamlakat investitsiyalarini faol jalb etish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, Fransiya korxonalarining yetimlari, to'plangan katta tajriba va bilimlarini qo'llashdan O'zbekiston manfaaddor.

O'zbekiston Prezidenti Fransiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

Fransiya kompaniyalari bilan 2027-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan innovatsion va sanoat kooperatsiyasi dasturi bunga zimmat qiladi. Unga umumiy qiymati 6,5 milliard yevro bo'lgan aniq yo'nalish va loyihalar kiritilgan.

Dasturni amalga oshirish doirasida Fransiyaning yetakchi bank va moliya tashkilotlarini faol jalb qilgan holda biznes tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali vositalari keng joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari muhim mineral resurslarning istiqbolli konlarini o'zlashtirish va ularni chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari, kimyo va farmatsevtika tarmoqlari, elektrotexnika sanoati, qishloq xo'jaligida zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish va boshqalarni O'zbekiston — Fransiya ishblarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida ko'rsatib o'tdi.

Energetikada energiya ishlab chiqarish va saqlash quvvatlarini kengaytirish, O'zbekiston hududlarida suv xo'jaligi, kommunal, turizm, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamkorlikni rivojlantirishda katta salohiyatga ega.

— Ikki mamlakat kompaniyalari ishtirokidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va jadallashtirish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan O'zbekiston — Fransiya investitsiya kengashini ta'sis etishni taklif qilaman. Biz tomondan unga O'zbekiston Bosh vaziri rahbarlik qiladi. Birinchi uchrashuvni iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida o'tkazishimiz mumkin. Barchangizni tashkil etilayotgan kengashning to'la huquqli a'zosi sifatida bo'lajak tadbirida faol ishtirok etishga taklif etaman, — dedi davlatimiz rahbari.

O'z navbatida, Fransiya ishblarmon doiralari vakillari hamkorlikni kengaytirish bo'yicha aniq taklif va rejalarni bayon qildi.

Davlatimiz rahbari ishblarmon doiralari vakillariga muvaffaqiyatlar tilab, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga O'zbekiston Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan "yo'l xaritalari" asosida erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Tashrif doirasida Parij shahrida O'zbekiston Prezidenti Emmanuel Makron tashrifi bilan Fransiya Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Fransiya Respublikasining oliy mukofoti — Faxriy legion ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Yuksak mukofotni davlatimiz rahbariga Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tantanali ravishda topshirdi.

O'zbekiston Prezidenti ikki mamlakat hamkorligini rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissi uchrashuv ustida nazaratni ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Mamlakatimiz yetakchisi mukofot uchun Fransiya rahbariga samimiy minnatdorlik bildirib, keyingi yillarda sarmahsul hamkorlikda yuksak natijalarga erishilgani, ikki mamlakat munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Faxriy legion ordeni 1802-yilda ta'sis etilgan. Fransiya ushbu orden alohida xizmatlarning davlat darajasida e'tirof etilishi va shon-sharafning eng yuqori belgisi hisoblanadi.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron Yelisey saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sharafiga davlat qabul marosimini uyushtirdi.

Qabulda O'zbekiston va Fransiya rasmiy delegatsiyalari a'zolari, taniqli madaniyat, san'at va fan arboblari, ishblarmon doiralari va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Emmanuel Makron va uning rafiqasi Brijit Makronga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, bugun bo'lib o'tgan muzokaralar tarixiy ahamiyatga ega ekanini, ularning natijasida mamlakatlarning o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Fransiya yetakchisi bugun o'tkazilgan muzokaralar natijalarini va imzolangan bitimlarni olqishladi.

— Bir necha yil ichida biz energetika, suv resurslarini boshqarish, kommunal xizmatlar,

transport, barqaror turizm kabi muhim sohalarida uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatishga erishdik. Buning dalili sifatida Fransiya hukumati va Fransiya taraqqiyot agentligi ko'magida fransuz kompaniyalari O'zbekistonga investitsiya kiritayotgani, hududlarda qo'shilgan qiymat va ish o'rnlari yaratilayotgani, yoshlar kasb o'rganib, hayotda o'z o'rnini topayotganini keltirishim mumkin, — dedi Emmanuel Makron.

Tomonlar xalqlarimiz farovonligi yo'lida O'zbekiston — Fransiya hamkorligini yanada mustahkamlashga qat'iy intilishlarini bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya davlat tashrifi doirasida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) bosh direktori Odri Azuleni qabul qildi.

BMT tizimidagi ushbu nufuzli tuzilma bilan samarali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari, shuningdek, joriy yilning kuzida Samarqand shahrida tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Ko'p qirrali sheriklik bugungi kunda yuksak darajada ekani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston tashabbusi bilan axborotdan foydalanish va bolalar ta'limi masalalari bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Mamlakatimiz Madaniy bo'yicha kelishuv saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha xalqaro markazga a'zo bo'ldi. Buxoro "Kreativ shaharlar tarmog'i"ga qo'shildi.

Samarqanddagi Ipak yo'li universitetida UNESCO kafedrasini ochildi. O'tgan yili ta'lim, madaniyat, raqamli va innovatsion texnologiyalar sohalarida 7 ta yangi loyihani amalga oshirish boshlandi.

Turon cho'llari va Zarafshon — Qoraqum yo'lga, ipakchilik, kulolchilik, rubob chalish va iftorlik an'analari, "Buxoro amiri devonxonasi arxivi", "Turkiston albomi", "Xudoybergan Devonov fotoalbomi" UNESCOning maxsus ro'yxatlariga kiritildi.

Ta'kidlash joizki, Samarqand shahrida bo'lajak Bosh konferensiyaning 43-sessiyasi so'nggi 40 yil ichida birinchi marta UNESCOning Parij shahridagi qarorgohidan boshqa joyda o'tkazildi. Bu voqea tashkilotning 80 yilligiga to'g'ri keladi.

Bosh direktor Odri Azule O'zbekiston bilan sarmahsul hamkorlikni yuksak baholab, bo'lajak tadbirga keng ko'lami tayyorgarlik ko'rilayotgani uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Amaliy hamkorlik dasturlarini yanada kengaytirish, shuningdek, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi forum va tadbirlarni tashkil etish bo'yicha yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya davlat tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKDAGI MUHIM QADAM

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 11-mart kuni Fransiyaga boshlangan davlat tashrifi xorijiy ommaviy axborot vositalari diqqat markazida.

Dunyo nigohi

Xususan, Buyuk Britaniyaning mashhur "London Post" yangiliklar portalida mazkur davlat tashrifi Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan amalga oshirilgani haqida yozishdi.

Fransiya rivojlangan industrial-agrar mamlakat bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Fransiya rivojlangan industrial-agrar mamlakat bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Iqtisodiy salohiyat bo'yicha Fransiya dunyoning eng rivojlangan yetti davlati qatoriga kiradi, — deyilgan mazkur nashrda e'lon qilingan maqolada.

Qayd etilganidek, O'zbekiston va Fransiya Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida muntazam ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazilmoqda. Ularda ikki davlat diplomatlari O'zbekiston — Fransiya munosabatlarining bugungi holati, oliy darajadagi o'zaro tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish masalalarini muhokama

qilyapti. Fransiya O'zbekistonning Markaziy Osiyoda o'zaro ishonchni mustahkamlash, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, shuningdek, YI bilan Kengaytirilgan sherkatlik va hamkorlik to'g'risidagi yangi bitimni tezroq imzolash borasidagi sa'y-harakatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga tayyor.

Janubiy Koreyaning nufuzli "UN Journal" bosma nashrida ham O'zbekiston — Fransiya hamkorligiga bag'ishlangan maqola bosildi.

Unda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil 2-noyabr kuni Samarqandga tashrifi chog'ida o'zaro munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish niyati e'lon qilingani hamda "yashil" energiya, xomashyo qazib olish va qayta ishlash, innovatsion qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, logistika, infratuzilmani rivojlantirish kabi sohalarda yangi yirik loyihalarni ilgari surish chora-tadbirlari muhokama etilgani ta'kidlangan.

Xususan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishdan ikki davlat manfaatdor ekanini qayd etilgan. O'zbekistonda yaratilgan qulay ishlab chiqarish va sarmoyaviy imkoniyatlar fransuz biznes vakillarini tobora ko'proq jalb qilmoqda.

Ma'lum qilinganidek, "Total Eren", "Veolia", "EDF", "Orano", "Lactalis", "Carrefour" va "Shiever" kabi jahon miqyosidagi kompaniyalar O'zbekistonda energetika, geologiya-qidiruv, oziq-ovqat

sanoati va chakana savdo sohalarida faol ishlayapti. Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) O'zbekistonda shahar infratuzilmasi, "yashil" iqtisodiyot, sanitariya, gidroenergetika va qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalarida ishtirok etmoqda.

Lordaniyaning yetakchi "Ammon News" elektron nashrida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga davlat tashrifi va o'zbek — fransuz hamkorligi istiqbollarga bag'ishlangan tahliliy maqola e'lon qilindi.

Elektron nashrdagi yozishlaricha, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va moliyaviy sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, Fransiyanning yetakchi kompaniya va muassasalari bilan qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratiladi.

Maqola yakunida "Bugungi kunda O'zbekiston — Fransiya munosabatlari jadal rivojlanib, siyosat va iqtisodiyotdan tortib, fan, madaniyat va ta'limgacha bo'lgan keng ko'lami sohalarni qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga davlat tashrifi ikki tomonlama hamkorlik tarixidagi muhim voqea bo'lib, tashrif davomida ilgari suriladigan yangi tashabbus va imzolangan kelishuvlar o'zaro sheriklikni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi", deb yozilgan "Ammon News"da.

"Dunyo" AA.

MUROJAATLAR, SO'ROVNOMA VA NATIJA



Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi qonunchilik, nazorat-tahlil faoliyatiga, joylarda aholini qiyinab kelayotgan masalalarni ijobiy hal etish va ularga amaliy ko'mak berish, murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish, qolaversa, joylarda sayyor qabullar uyushtirishga alohida e'tibor qaratadi. Qo'mitaning 2024-yil 20-noyabr dan shu yilning 28-fevraligacha qadar har xil masalalarni qamrab olgan 6 ta majlisi o'tkazildi.

Senat qo'mitalarida

Hisobot davrida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va ma'qullash uchun Senatga kiritilgan 11 qonun hamda Senat vakolatiga doir 6 ta masala ko'rib chiqildi.

Shuningdek, qo'mita majlisida Senat tomonidan ishlab chiqilgan "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

O'tgan boshqaruv davri davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining qonunlarga rioya etishi, Senat va uning Kengashi qarorlarining bajarilishi, shuningdek, qonunlarning, Senat qarorlarining ijrosi holati, huquqni qo'llash amaliyoti joylarda chiqib o'rganildi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari bilan birgalikda muhokama etildi.

Mamlakatimizda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimining mustahkam poydevori yaratilgan bo'lib, bu borada qo'mita a'zolari ham jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan

murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirdi. Xususan, ular tomonidan 632 ta murojaat ko'rib chiqildi va nazoratga olinib, yuborilgan 69 ta murojaatdan 23 tasi ijobiy hal etildi. Senatda va hududlarda jami 500 dan ziyod fuqarolar qabul qilindi.

Qo'mitaga kelib tushgan murojaatlarning aksariyati sud qarorlaridan norozi bo'lib yozilgan shikoyatlaridan iborat bo'lsa, qolganini ichki ishlar organlariga taalluqli bo'lgan masalalar hamda davlat boshqaruvi organlari rahbarlari hamda senatorlarning qabulini so'rab yozilgan murojaatlar tashkil etadi.

Aytish lozimki, salmoqli murojaatlar alimant bilan bogliq bo'lib, ular qo'mita tomonidan qat'iy nazoratga olib borilganligi natijasida Majburiy jiro byurosi tomonidan qarzdorlik va alimant pullari undirib berilmoqda.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun me'yorlari asosida qo'mita tomonidan uyushtirilgan qabar juyonlarida 352 nafar fuqaroning muammolari,

talab va istaklari, fikr-mulohazalari tinglanib, joyida hal etish choralari ko'ridi. Xususan, 75 nafar fuqaroning murojaati senatorlarning qonuniy aralashuvi hamda ishchi guruhning sa'y-harakatlari bilan joyida ijobiy hal qilindi. 279 nafar fuqaroning murojaatlari tegishli ijro organlariga yuborildi va bajarilishi nazoratga olindi.

Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi a'zolari tomonidan tegishli hudud va saylovchilar manfaatlariga taalluqli muammolarni hal etish borasida parlament nazoratining senator so'rovi shaklidan ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Hisobot davrida saylovchilar, murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini bilan bogliq masalalar yuzasidan jami 4 ta senator so'rovi yuborildi.

Misol uchun, surunkali kasallikning og'ir turlaridan azob chekuvchi va alohida xonada yashashga muhtoj bo'lgan shaxslarning subsidiya olishi bilan bogliq muammolarni bartaraf etish maqsadida ko'rilayotgan ishlar, shuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligining bu boradagi rejalari yuzasidan yoki transport vositalari hamdovchilarini tayyorlovchi hamda qayta tayyorlovchi avtomaktablar faoliyatini litsenziyalash; Surxondaryo viloyatida joylashgan imtihon olish avtodromi faoliyatini to'xtatish qo'yish; bolalarda yo'l harakati qoidalarini bo'yicha yetarli ko'nikmalarni shakllantirish bilan bogliq muammolarni bartaraf etish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining rejalari yuzasidan senator so'rovi yuborilib, asoslanirilgan javoblar olindi.

O'z navbatida, Amudaryo tumani tabiiy iqlim sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan hududlar ro'yxatiga kiritilganligi masalasi yuzasidan ham O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziriga so'rov yuborildi.

DO'STONA ALOQALARNING YANGI BOSQICHI

Prezidentimizning Fransiyaga davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish, hamkorlikni mustahkamlash va savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashrif nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy-gumanitar hamkorlikning ham yangi bosqichga ko'tarilishini anglatadi.

Fikr

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi do'stona munosabatlar 2016-yildan keyin yanada faollashdi. Xususan, 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga ilk rasmiy tashrifi natijasida hukumatlararo va idoralararo 10 ta muhim hujjat imzolandi.

2022-yilda Prezident Mirziyoyev Fransiyaga yana bir rasmiy tashrif bilan borib, ikki davlat parlamentlari o'rtasida hamda iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan kelishuvlarga imzolandi. Natijada Fransiya Tashqi ishlar vazirligi bilan 2023-2024-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi hamda umumiy qiymati 6 milliard yevrodan ortiq bo'lgan savdo-

iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalar bo'yicha kelishuv imzolandi.

Madaniy aloqalar O'zbekiston va Fransiya munosabatlarida muhim o'rin tutadi. 2022-yilda Parijdagi Luvr muzeyida "O'zbekiston vohalari xazinalari: Karvon yo'llari chorrhasida" nomli ko'rgazma tashkil etildi. Ushbu tadbir O'zbekistonning bo'y madaniy merosini Fransiya jamoatchiligi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim aloqalari ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Hozirda O'zbekistonda 200 mingga yaqin o'quvchi va talabalar fransuz tilini o'rganmoqda. Yurtimizdagi 700 ta maktab va 13 ta universitetda fransuz filologiyasi bo'yicha

ta'lim beriladi. Toshkentda joylashgan "Alliance Francaise" markazi o'zbek yoshlariga fransuz tili va madaniyatini chuquroq o'rganish imkonini bermoqda.

Oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikning yana bir muhim ko'rinishi — Toshkentda Strasburg va Paneteon-Sorbonna universitetlari filiallarining ochilishidir. Ushbu filiallar orqali O'zbekiston yoshlari Fransiyanning yuqori sifatlari ta'lim tizimidan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Endilikda ushbu hamkorlikni yanada rivojlantirish, parlamentlararo muloqot va qonunchilik sohasidagi tajriba almashinuvini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni chog'da O'zbekistonning madaniy va ilmiy merosini Fransiyada targ'ib qilish, turizm va ta'lim aloqalarini kengaytirish orqali ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashda kamarbasta bo'lamiz.

Munajat YO'LCHIYEVA, Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi.

Munosabat

SAMARALI NAZORAT — QONUN USTUVORLIGI KAFOLATI

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, adolatni ta'minlash hamda uni yuzaga chiqarishda sud hokimiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimiz sud tizimini tartibga solish va uni yanada takomillashtirishni nazarda tutadi. Jumladan, so'nggi yillarda sudlarga doir bir qancha hujjatlar qabul qilinib, ularning faoliyati tubdan isloh etildi.

Joriy yil 30-yanvarda imzolangan "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori sud tizimini yanada mukammallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sudlar faoliyatini takomillashtirish va fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish ko'zda tutilgan bo'lib, birinchi navbatda, ma'muriy sudlarning samarali ishlashini ta'minlash, shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari bilan munosabatlarida paydo bo'lgan nizolarni adolati va tekzor hal etishni maqsad qildi.

2017-yilda ma'muriy sudlar tizimini tashkil etish borasidagi keng ko'lami islohotlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizliklari ustidan sudga shikoyat qilish huquqlarini ta'minlashda muhim omil bo'ldi. O'tgan davr mobaynida ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan ariza va shikoyatlarining 57 foizi qanoatlanirishi ham fuqarolar hamda tadbirkorlar huquqlarini tiklash yo'lida ma'muriy sudlarning samarali va ishonchli himoya mexanizmlarga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, ma'muriy sudlar faoliyatiga ilg'or xorijiy tajriba va institutlarni joriy qilish orqali fuqarolar hamda tadbirkorlar huquqlari himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kengaytirish masalasi ham muhim hisoblanadi. Ma'muriy sudlarga kiritilayotgan yangi tartib-taomillar, jumladan, sudga hujjatlar taqdim etgan davlat organi mansabdor shaxslarining majburiy ishtirokini va ma'muriy ish yuritishda ishlarning tekzor hamda sifatlari ko'rib chiqilishini ta'minlashga qaratilgan dastlabki eshittuvni joriy qilish ushbu o'zgarishlarning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Ma'muriy sudlar tizimining keyingi

taraqqiyoti uchun muhim qadamlardan yana biri — ma'muriy sud ish yurituvida dastlabki eshittuv institutini joriy etish. Bu institutning maqsadi arizachilarga o'z huquqlarini himoya qilish uchun zarur hujjatlar va dalillar taqdim etish, shuningdek, arizachi va javobgarlarning maqsad-muddaolarini aniqlashtirish hisoblanadi. Bu mexanizm ish yurituvining tezkorligiga, ariza va dalillarni aniqlashtirish hamda ishning odilona hal qilinishiga imkon yaratadi. Dastlabki eshittuvning natijasiga ko'ra, ariza qaytarilishi yoki ish bo'yicha sud muhokamasi tayinlanishi mumkin. Buning barchasi, ma'muriy sudlarning ishonchli va samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqbuzarliklari hamda ma'muriy qonunbuzilish holatlari to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatlarini ma'muriy sudlarga berilishi mazkur tartib-taomillarning yanada samarali amalga oshirilishiga yordam beradi. Agar davlat organi va mansabdor shaxslarning faoliyati sud tomonidan xato yoki qonunga xilof deb topilsa, ularga javobgarlik yuklatish zaruriyati qonun ustuvorligi ta'minlanishini kuchaytirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ma'muriy sudlar bilan bogliq islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlardan yana biri — tadbirkorlar uchun soliq huquqbuzarliklarining tan olinishi orqali soliq organi tomonidan banklardagi hisobvarqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish tartibini joriy etilishi. Bu choralar tadbirkorlar uchun moliyaviy axborotlarning shaffof bo'lishi va o'zaro ishonchning oshishida muhim omildir.

Sud tizimidagi islohotlar, ayniqsa, ma'muriy sudlar orqali fuqarolarning huquqlarini himoya qilish davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi. Buning natijasida fuqarolarning huquqlari buzilganida, sudga murojaat etish orqali o'zlarini himoya qilish imkoniyati mustahkamlanadi.

Abdulhamid ESHMURATOV, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi.

HUQUQLARDA AKS ETAYOTGAN QADRIYAT

2024-yilda Ombudsmanga kelib tushgan murojaatlarning eng ko'pi shaharsozlik normalari buzilishi natijasida ekologiyaga zarar yetkazilishi bilan bogliq masalalarni tashkil etgan.

Bu haqda Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya hamda Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitalarining qo'shma majlisida to'xtalib o'tildi.

Unda parlamentning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2024-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi eshittildi.

Qayd etilganidek, Ombudsman mamlakatimizdagi har bir inson o'zini himoyalagan va qadri ekanligini his qilishiga, ularning huquqlari kafolatlanishini ta'minlashga intilaydi.

2024-yilda Ombudsmanga 23 422 ta shikoyat kelib tushgan. Ularning 6 560 tasi ijtimoiy, 6 004 tasi iqtisodiy, 2 926 tasi murojaat etish huquqi hamda siyosiy huquqlarni, 3 392 tasi shaxsiy huquq va erkinliklarni, 282 tasi ekologik huquqlar hamda 1 447 tasi boshqa masalalardagi murojaatlarni qamrab olgan. Ta'kidlanganidek, bugungi

kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'tgan yilda ekologik huquqlar yo'nalisida kelib tushgan 282 ta murojaatning 51 tasi nazoratga olinib, vakolatlari davlat organlariga Ombudsmanning so'rovi kiritilgan. 118 tasi tegishli davlat organlariga ko'rib chiqilishi uchun yuborilgan va 19 tasi bo'yicha tushuntirish berilgan. Nazoratga olingan murojaatlarning 72,5 foizi ijobiy hal etilishiga erishilgan.

O'rganishlar davomida Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, "Taxtapul" MFYdagi noqonuniy qurilish ishlarning to'xtatilishiga erishilgan, 2 ta holatda o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlarni buzdirish bo'yicha sudga da'vo arizasi kiritilgan. Shuningdek, atrof-muhitga bo'lgan huquqlar masalasida 54 ta, toza ichimlik

suvi ta'minoti bilan bogliq 17 ta, sanitariya-epidemiologiya bo'yicha 12 ta murojaat kelib tushgan.

Murojaatlar yuzasidan Ombudsmanning yuborgan so'rovlari natijasida Farg'ona viloyatining Oltiariq tumandagi 50 gektar yer maydonida joylashgan 19 yillik daraxtlar kesilishining oldi olingan bo'lsa, Toshkent viloyati, Chinoz tumani, "Bunyodkor" MFYdagi quvurlar tozalashiga erishilgan.

Shu bilan birga, xotin-qizlar va bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qator choralar ko'ridi. Xotin-qizlarning farzandlari ta'minoti uchun alimant va moliyaviy ko'mak olish bo'yicha 298 ta murojaat nazoratga olinib, ularning 197 tasi (66,1 foizi) ijobiy hal etildi va voyaga yetmagan 5 nafar bolaning maktabga qabul qilinishida ko'maklashildi.

Majlis yakunida ko'rilgan masalalar yuzasidan qo'mitalarning tegishli qarori qabul qilindi.

BOLALAR OMBUDSMANI FAOLIYATI SARHISOBI

Parlament yuqori palatasining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ning bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi haqidagi ma'ruzasi ko'rib chiqildi.

Majlisda senatorlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, Yoshlar parlamenti, mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyasi hamda Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri komissiyalari a'zolari ishtirok etdi.

Hisobotda keltirilishicha, 2024-yilda Bolalar ombudsmani nomiga O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar fuqarolari, ombudsmanlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan jami 1 064 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 898 tasi Bola huquqlari bo'yicha vakil tomonidan to'liq nazoratga olingan bo'lib, 283 ta murojaat ijobiy hal qilingan hamda 545 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilgan.

2024-yilda bola huquqlari sohasidagi qonunchilikdagi mavjud muammolar tahlili asosida davlat organlari va tashkilotlariga 40 ta tahliliy axborot kiritilgan.

Bola huquqlari bo'yicha vakilning 35 ta shaxsiy qabuli tashkil etilib, ularda jismoniy va yuridik shaxslarning jami 160 ta murojaati ko'rib chiqilgan. Bolalar ombudsmani murojaatlar tahlili va monitoringi asosida davlat organlari tomonidan bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishiga yo'l qo'yilgani yuzasidan tegishli mutasaddi idoralarga 9 ta ogohlantirish, 3 ta taqdimnoma, 18 ta xulosa va sud hujjati ustidan protest keltirish to'g'risida 6 ta iltilmosnoma kiritgan.

Bolalar ombudsmani nomiga kelgan

murojaatlarni o'rganish natijasida aniqlangan bolalarga nisbatan sodir etilgan zo'rovonlik holatlari yuzasidan 14 ta jinoyat ishi hamda 18 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Ta'lim muassasalarida bolaga jismoniy zo'rovonlik qilgani va o'z kasbiy faoliyatiga sovuqqonlik bilan qaragani uchun 7 nafar pedagog xodim ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, 22 nafariga nisbatan intizomiy jazo qo'llanildi. Shuningdek, bolaga nisbatan qo'pol muomalada bo'lgani uchun huquqni muhofaza qiluvchi organning 3 nafar xodimi intizomiy jazoga, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini poymol etganligi sababli 2 nafar fuqaro ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Fuqarolarning murojaatlari va bolalarga nisbatan sodir qilingan jinoyatlarga oid sud xabarnomalari asosida Bolalar ombudsmani va uning kotibiyati xodimlari fuqarolik, jinoyi va ma'muriy ishlar (46 ta) yuzasidan sudlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi.

Bolalar ombudsmani ma'ruzasi eshittigandan so'ng mas'ul vazirlik hamda idoralar vakillarining O'zbekistonda bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar, qonun bilan ziddiyatda bo'lgan bolalarning holati hamda ayrim sohalarda bolaning eng ustun manfaatlarini ta'minlashga doir masalalar yuzasidan fikr va mulohazalari tinglandi.

Majlis yakunida ko'rib chiqilgan masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Xushxabar

Quvonarlisi, TDIU QS reytingining mazkur yo'nalishi bo'yicha ushbu natijaga erishgan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari orasida birinchi va hozircha yagona universitet hisoblanadi.

Aytish kerakki, QS ("Quacquarelli Symonds World University Rankings") — bu dunyodagi eng nufuzli ta'lim reytinglarini tuzuvchi xalqaro tashkilotlardan biri. U, asosan, oliy ta'lim muassasalarini baholash bilan shug'ullanadi. QS reytinglari tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar fikri asosida oliy o'quvchilarning akademik obro'si, bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini bo'yicha ish beruvchilarning munosabati, talabalar va o'qituvchilar salohiyati, ularning xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalari hamda iqtiboslar soni, xalqaro talabalar va professor-o'qituvchilar ulushi kabi turli mezonlarga asoslanadi.

Bu muvaffaqiyat mamlakatimizda soha taraqqiyotiga davlat siyosati darajasida qaratilayotgan e'tibor samarasi, jumladan, oliy o'quvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatini kengaytirish, xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyasi natijasidir.

Prezidentimiz Farmoniga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yuritmizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning ishonchli integratsiyasini ta'minlash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda.

Farmonga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazilayapti. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlari joriy qilinayotir. Jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimga bosqichma-bosqich o'tilmoqda.

Olib borilayotgan ishlar o'z mevasini bermoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi xabga aylanib bormoqda.

Sohada bunday o'zgarishlar xalqaro miqyosda ham e'tirof etilyapti. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining QS reytingida "TOP — 500" talikdan joy olgani ham so'zimiz isboti.

Qayd etish joizki, TDIU boshqa milliy va xalqaro reytinglarda ham yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Xususan, universitet "QS Stars" reytingida 5 yulduz olgan Markaziy Osiyoda ikkinchi va O'zbekistonda birinchi oliy o'quvchi.

Bunday yutuqlar TDIUning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirib, universitet jamoasi uchun yangi marralar sari dadil qadam tashlashga katta rag'bat va imkoniyat beradi.

"Xalq so'zi".

DEPUTATLAR KORPUSI YANADA TASHABBUSKOR, FAOL BO'LISHI — PIROVARD MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda dastlab davlatimiz rahbarining shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish yuzasidan quyi palata va uning organlari oldida turgan vazifalar atroflicha muhokama qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov Prezident ma'ruzasida ilgari surilgan tashabbuslar haqida so'z yuritib, parlament oldida turgan ustuvor vazifalarga to'xtalib o'tdi. "Hukumat soati", "parlament eshituvi", "parlament so'rovi", "deputat so'rovi" kabi institutlardan korruptsiyaning oldini olishda samarali foydalanish lozimligi, deputatlar saylov okruglaridagi faoliyati davomida sohalarni o'rganishi, fuqarolar bilan suhbatlashib, joylardagi korruptsiyaviy holatlarni bartaraf etish masalasini parlamentga olib chiqishlari kerakligi aytiladi. Davlatimiz rahbari ma'ruzasida bildirilgan takliflar, vazifalardan kelib chiqib, "Yo'l xaritasi" loyihasi ishlab chiqilayotgani, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarda quyi palataning barcha organlari keng jalb etilishi ta'kidlandi.

Majlisda ushbu masala yuzasidan fraksiyalar rahbarlari, qo'mita raislari ham o'z munosabati va takliflarini bildirdi. So'zga chiqqanlar korruptsiyaga qarshi kurashishda faollik ko'rsatish lozimligini, davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab, bu jarayonda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilishini bildirdi. Shuningdek, majlisda ijtimoiy-siyosiy hayotimizga oid qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Homiylik faoliyati tartibi takomillashmoqda

Majlisda homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi homiylik faoliyati subyektlariga nisbatan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, homiylik tashkilotlarining faoliyati ochiq qilinishi va fuqarolarning ularga nisbatan ishonchini yuksaltirish hamda homiylik faoliyatini amalga oshirish uchun pul mablag'larini yig'ishni qonuniy tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan.

Loyihada homiylikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha mexanizmlari, homiylik xayriyalarini yig'ish, xayriya qutisini o'rnatish va undan foydalanish tartiblari, shuningdek, homiylik xayriyalar to'g'risidagi axborotni oshkor etish va ushbu jarayonning ochiq qilinishi ta'minlash shartlari hamda homiylik to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralari qo'llash nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida mas'ul qo'mita tomonidan qator ishlar amalga oshirilgani, jumladan, ishchi guruh a'zolari, huquqshunoslar ishtirokida seminarlar, yig'ilishlar o'tkazilgani aytiladi. Ularda deputatlar bergan takliflar asosida hujjat matni har tomonlama pishiq-puxta holatga keltirilib, maromiga yetkazilgani ta'kidlandi.

Munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Ta'sirchan va samarador jamoatchilik nazorati oshadi

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Unda "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi va "Davlat boji to'g'risida"gi qonunlarga hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Soliq kodekslariga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda.

Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining Konstitutsiya va qonunchilikda belgilangan faoliyat erkinligi kafolatlarini yanada mustahkamlash maqsadida ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik uchun davlat organlarining mansabdor shaxslariga ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Jamoatchilik nazorati tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida esa jamoatchilik nazorati natijasi bo'yicha davlat organlariga kiritilgan yakuniy hujjatni belgilangan muddatda ko'rib chiqmaslik uchun mansabdor shaxslarga ma'muriy javobgarlik belgilash nazarda tutilyapti.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik uchun amalda bo'lgan ma'muriy jarima miqdorlari o'rtaacha to'rt dan bir qismiga kamaytirilmoqda.

Shu bilan birga, nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik oldida faoliyat shaffofligi va hisobdorligi oshirilayotgani, ya'ni nodavlat notijorat tashkilotlari xorijiy manbalardan olgan pul mablag'lari va mol-mulk hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi axborotni jamoatchilikka e'lon qilishi belgilanmoqda.

Homiylik va xayriya faoliyatining mazzilliligini ta'minlash, jamoat fondlari faoliyatiga aholining ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-to'roj qilish yoxud firibgarlik jinoyatlarini sodir etganligi uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki



olib tashlanmagan shaxslar tomonidan jamoat fondlari tashkil qila olmasligi ham ushbu qonun loyihasida aks etayotir. Bundan tashqari, nodavlat tashkilotlarning xorijiy grantlar hisobidan siyosiy faoliyatda ishtiroki yanada tartibga solinmoqda. Qolaversa, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning xorijiy donorlar buyurtmasiga asosan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish faoliyatining shaffofligini oshirishga qaratilgan normalar kiritilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi nodavlat notijorat tashkilotlarining qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasini mustahkamlash, ularning faoliyat erkinligi kafolatlarini va shaffofligini ta'minlash hamda mazkur sohada huquqni qo'llashning yagona amaliyotini yo'lga qo'yishga asos yaratadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Fuqarolik jamiyati institutlari yanada qo'llab-quvvatlanadi

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan —



fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularni mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga keng jalb qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda 2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga mustahkam zamin yaratdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyati institutlari alohida bob sifatida kiritilib, fuqarolik jamiyati institutlari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi belgilandi.

Prezidentimizning 2024-yil 26-avgustdagi tegishli Farmoni bilan Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda ushbu fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi faoliyati institutsional va tashkiliy-huquqiy jihatdan tubdan isloh qilindi.

Oxirgi to'rt yilda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining 3 mingga yaqin loyihalari moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu qonun loyihasida amaldagi qonunchilik normalarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga moslashtirish, Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda uning hududiy bo'linmalarining vazifalari, ularning davlat subsidiyasi, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarni ajratish jarayonidagi vakolatlari aniqlashtirilmoqda.

Fondlar faoliyatida ortiqcha tekshiruv va byurokratiya tartib-taomillarini kamaytirishga qaratilgan normalar kiritilyapti.

Shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni yangi bosqichga ko'tarish va ijobiy baholangan loyihalarni yuzasidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish bo'yicha davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasida bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha darajada to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Qonuniy manfaatlar kafolati

Deputatlar tomonidan ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat — mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Unda mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining faoliyatini yanada takomillashtirish, mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, sohaga rivojlangan davlatlarning tajribasini joriy qilishga oid huquqiy normalar aks etmoqda. Shuningdek, mas'uliyati cheklangan jamiyat nafaqat litsenziya, balki boshqa ruxsat etuvchi

hujjatlar va xabardor qilish tartibida faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkinligi, jamiyatning filial va vakolatxonalarini ochish tartiblari belgilanmoqda.

Deputatlar jamiyat ishtirokchilariga o'z korporativ huquqlarini amalga oshirish to'g'risida korporativ shartnomalar tuzish huquqi berilayotgani, nizoli vaziyatlar mediatsiya yoki hakamlik sudi tartibida ham hal qilinishi mumkin etib belgilanayotganiga alohida e'tibor qaratildi.

Xalq vakillari loyihada jamiyat kuzatuv kengashining qarorlarini sirdan ovoz berish yo'li orqali (so'rov yo'li bilan) qabul qilish tartibi hamda ustav fondidagi ulushni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi bitim oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi mumkinligini belgilanishi MCHJlarning samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'l ochishini qayd etdi.

Qonun loyihasining qabul qilinishi jamiyat ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini yanada mustahkamlashga, jamiyat faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga asos yaratadi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Jabrlanganlar huquqlari muhofaza qilinadi

Jinoyat protsessida majburlor choralari institutini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi eng muhim kafollatlardan biri sifatida huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlarini qonun bilan muhofaza qilish, jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun davlat shart-sharoitlar yaratishi belgilandi.

Biroq jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilmagan holda, ushbu shaxslar O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini tark etib surishtiruv, tergov yoxud suddan yashirinish holatlari kuzatilmog'unda. Natijada jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquqlarini tiklash, ularga yetkazilgan zararlarni qoplash imkoniyati pasaymoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan ayrim qonun hujjatlariga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yo'li sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilmagan, biroq O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini tark etib surishtiruv, dastlabki tergov yoxud suddan uzri sabablarisiz bo'yin tovlashi mumkinligiga yetarli asoslar mavjud bo'lganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud tomonidan ularning O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklab qo'yish tartibi belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi jabrlanuvchining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya etishga, uning qonuniy huquq va manfaatlariga ziyon yetkazilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Investitsiyaviy muhit va eksport hajmi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2025-yil 21-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisida Investitsiyalar,

sanoat va savdo vaziri L. Qudratovga "O'zbekistonning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish hamda eksportni diversifikatsiya qilish va global savdo aloqalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida" Qonunchilik palatasining parlament so'rovi yuborilgan edi.

Unda eksport yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, eksport hajmini oshirish, talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni takomillashtirish hamda investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslanirilgan tushuntirishlar berish so'ralgandi.

Majlisda deputatlar mazkur parlament so'roviga yuborilgan javobni ko'rib chiqdi.

Unda keltirilishicha, yurtimizning eksport salohiyatini oshirishda yuqori marjali bozorlarga chiqish va ularga bosqichma-bosqich eksport hajmini oshirib borish bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Xususan, mahalliy mahsulotlarning xorijiy mamlakatlarda bozorlarga eksportini diversifikatsiya qilish va savdo tartibotlarini yengillashtirish maqsadida Turkiya va Pokiston bilan imtiyozli savdo bitimi imzolandi.

Ushbu bitimlar doirasida Turkiyaga 12 turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, Pokiston bozoriga 17 turdagi mahalliy mahsulotlarni imtiyozli savdo tartibi asosida pasaytirilgan bojxona bojlari bilan eksport qilish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, 2024-yilda Yevropa Ittifoqining 6 ta davlati hamda Turkiyaga 32 ta charm, oziq-ovqat, meva-sabzavot va to'qimachilik mahsulotlari eksportchi korxonalar ishtirokida biznes-missiyalar tashkil etilib, 64,6 mln. dollarlik mahsulotlar eksporti amalga oshirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston tomonidan Yevropa Ittifoqining "Bosh preferensiyalar tizimi plus" ("GSP+") benefitsiari maqomi olingan. Bugungi kunda O'zbekiston Buyuk Britaniyaning "GSP+" tizimi benefitsiari hisoblanadi.

Ushbu tizim doirasida qo'llanadigan imtiyozlar doirasida 6200 dan ortiq tovar pozitsiyalari bo'yicha mahalliy mahsulotlarni Yevropaning 27 ta mamlakati va Britaniya bozorlariga bojxona bojisiz eksport qilish imkoniyatiga ega. Hozirda mazkur imkoniyatlardan foydalanish ko'lami kengaytirilmoqda.

Vazir javobida keltirilishicha, so'nggi yillarda respublikaning mavjud imkoniyati va salohiyatidan samarali foydalanish orqali tovar va xizmatlar eksport hajmini sezilarli darajada ko'paytirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Jumladan, xorijning nufuzli "RWC" kompaniyasini jalb qilgan holda O'zbekiston Respublikasining 2025 — 2030-yillarga mo'ljallangan milliy eksport strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Unda jahon bozori tendensiyalaridan kelib chiqqan holda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini 50 foizdan oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, mahsulotlarni xorijda keng targ'ib qilish va tashqi bozorlar standartlariga moslashtirish, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish kabi kompleks choralar ko'rish orqali 2030-yilda mamlakatning eksport hajmini 45 mlrd. dollarga yetkazish nazarda tutilgan.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish maqsadida mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarida xalqaro standartlarni joriy etish va korxonalar sertifikatlashtirish choralari ko'ridi. Natijada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati yo'nalishida xalqaro standart qo'llanilib, 2024-yil yakuni bilan ushbu sohada sertifikatlashtirilgan korxonalar soni 1 335 taga yetkazildi.

Majlisda parlament so'roviga javobda ko'tarilgan masalalar bo'yicha atroflicha ma'lumotlar taqdim etilgani aytilib, vazirning javobi ma'lumot uchun qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

O'ZIMIZ O'ZGARMAS EKANMIZ, JAMIYATDA O'ZGARISH BO'LMAYDI

Prezidentimiz raisligida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishni katta hayajon va diqqat bilan kutadik. Davlatimiz rahbari islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirayotgan hozirgi vaqtda yurtimizda korruptsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha ishlarga to'xtalib, kelgusi vazifalarni aniq belgilab berdi.

Aks sado

Darhaqiqat, dunyoning har qanday mamlakatidagi islohotlar yo'lida eng katta to'siq va g'ov, bu — korruptsiya. Buni dunyo tajribasi ham to'liq tasdiqlaydi. Ushbu illat oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko'rayotgani global xavf ekanidan dalolat. Korruptsiya xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdid soladi.

Shu nuqtayi nazardan, yurtimizda korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha aniq tizim yaratildi, alohida qonunlar qabul qilindi. Parlament palatalarida mas'ul qo'mitalar, Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash va agentlik tashkil qilindi. Eng muhimi, jamiyatda korruptsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi.

Shu bilan birga, qonun ishlashi, samara berishi, korruptsiyaga qarshi kurash natijadorligi aholining huquqiy ongi va



madaniyati yuksalishiga ham bog'liq.

"Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning 3-bobi "Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish" deb nomlanib, unda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari ustuvor vazifa ekanini belgilangan.

Shu o'rinda korruptsiyaga qarshi kurash borasida jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlarga to'xtalish joiz. Masalan,

oliy ta'lim tizimini olaylik. Institut va universitetlarga qabulning 2018-yildan boshlab adolati, oshkor tashkil qilinishi, o'quv jarayonining zamonaviy kredit-modul tizimiga o'tkazilishi, professor-o'qituvchilar o'ylak maoshining bir necha baravar ko'tarilishi, professional mutaxassislarining davlat tomonidan keng rag'batlantirilayotgani natijasida oliy ta'lim tizimida korruptsiya holatlari jiddiy kamaydi.

Sohada uzoq yillar ishlagan pedagog va olim sifatida shuni aytmoqchimaniki, jamiyatda ustuvor soha — ta'lim tizimida yoshlar ongiga korruptsiya, poraxorlik eng yomon illat ekanini chuqur singdirish lozim.

Jamiyatda "Poraxorlik illatini yengib bo'lmaydi", degan tushuncha shakllanib qolishiga yo'l qo'yilmasligi shart. O'ziga bog'chada, maktabda tamagirlik, poraxorlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanini haqida ko'proq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Yoshlarga faqat ilm najot ekanini, yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka da'vat etishni tushuntirishimiz, bu aqidani ongiga quyishimiz kerak. Navqiron avlodning dunyoqarashini shakllantiradigan ijtimoiy fanlarni ta'lim tizimining barcha bosqichida sifatlari o'qitish chora-tadbirlarini belgilash ham korruptsiyaga qarshi kurashning muhim omillaridan biri hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

Aynan ijtimoiy fanlar kelajagimiz egalarini ham ma'nan, ham ruhan tarbiyalashning eng yaxshi vositasidir.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, islohotlarimiz natijadorligi, avvalo, sadoqatli, fidoyi va korruptsiyaga toqatsiz yangi avlodga bevosita bog'liq. Bu ishda fikri toza yosh avlodni tarbiyalash ustuvor vazifaga aylanishi shart.

Shu maqsadda maktab direktorlari Tarbiya fani doirasida o'g'il-qizlarimizga halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezuq g'oyalarni sodda tilda tushuntirib berishi kerakligi ta'kidlandi. Rektorlar esa talabalarning korruptsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yishi zarur. Umuman, "korruptsiya — kelajakka tahdid" degan g'oya asosida yangi O'zbekiston yoshlari qalbidan joy oladigan tizim yaratilsa, ayni muddao bo'ladi.

Shu o'rinda mulohaza. Bugun har birimiz poraxorlik va korruptsiyaning jirkanch illat ekanini, ayrim rahbarlar, shifokorlar, pedagoglar va boshqa kasb egalarining "sovg'a-salom"ga o'chligi haqida ko'p gapiramiz-uz, ammo hamma ishing boshida o'zimiz turganimizni unutib qo'yamiz. Farzandimizni ishga joylashga yordam bergan rahbarning, yaqinimizni davolagan shifokorning so'ramasa ham cho'ntagiga pul qistirib ketayotgan o'zimiz-ku. Birovdan kamchilik qidiramiz, ammo o'zimizning

kamchiligimizni unutib qo'yamiz. Demak, birinchi navbatda, har birimiz o'zimiz o'zgarmas ekanimiz, jamiyatda o'zgarish bo'lmaydi, qusurlarimiz "bolalayveradi".

To'ylar o'tkazishda haddan oshish, uni kimo'zarga aylantirish tobora avj olayotgani ham korruptsiya ildizini kuchaytiradigan odatlardan. To'y korteljari, son-sanoqsig' to'roralar, behisob oldi-berdil, qiz tonmoning uyovonini uyini xorij mebellari, asbob-ayjomlari bilan to'ldirib berishi va boshqa "orzu-havaslar" emasi bizni poraxorlikka undayotgan omillar! Shuning uchun davlatimiz rahbari yig'ilishda korruptsiyani yengish uchun, birinchi navbatda, uning ortiqcha hashamat va daddaba degan "o'q'ildirlarini" quritishni shartligini aytdi. Eng achinarlisi, bunga taniqli shaxslar bosh-qosh bo'lyapti, odamlar ularga tenglashaman deb, o'zini "o'tga-cho'qqa" uryapti. Bu borada rahbarlar o'zining kamtarona turmush tarzi bilan barchaga namuna bo'lishi shart, soxta qadriyatlar asiriga aylinish insonni noqonuniy daromad topishga majburlashi turgan gap. Shu bois davlatimiz rahbari parlament palatalari, mahalliy Kengashlar, jamoatchilik vakillari, mahalla raislari, nuroniyatni bu masalaga bosh-qosh bo'lib, aholi orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirishga chaqirdi.

Beфарqlik, loqaydlikka yo'l qo'ysak, taraqqiyotga to'g'onoq bo'layotgan bu illatdan xalos bo'lmaymiz. Uni bartaraf

etmas ekanimiz, jamiyat daraxti meva tugib, gurkurab o'solmaydi. Kelajak avlod bu daraxtning saxovatidan bahramand bo'lmaydi. Korruptsiya muqarrar falokatdir. U kelajakka ishonch, umid ruhini so'ndiradi. Jamiyatda ruhsiz va kayfiyatiz insonlarning ko'payishiga, o'g'irlik, kazzoblik, ayorlik kabi illatlarining palak yozishiga sabab bo'ladi. Islohotni maishiy korruptsiya holatlarining oldini olishdan boshlashimiz dardkor. Korruptsiyaga qarshi faqat siyosat bilan emas, jamiyatda sog'lom fikrlashni yo'lga qo'yib kurashsak, maqsadga erishamiz.

Korruptsiyaga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy va moliyaviy mexanizmlarining takomillashirilayotgani, bu jarayonga jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb qilish hamda korruptsiyaning oldini olish bo'yicha idoralarga hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, albatta, o'z samarasini beradi.

Asosiysi, korruptsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza etuvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo'lmas ekan, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatmas ekan, bu alohida muvaffaqiyat bo'lmaymiz.

Bobir TURSUNOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiyot va moliyaviy xavfsizlik kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR



Mehr rishtasi

Bundan 19 yil muqaddam Fransiyadan yurtimizga sayyoh sifatida kelgan Elen Pelos xonim qadimiy ko'chalarida erta-yu kech hayot nafasi ufurib turadigan, tarixiy obidalar og'ushidagi ko'hna Buxoroni ko'rdiy u unga ipsiz bog'lanib qoldi.

BUXORONING FRANSIYALIK BUVIJONISI

sarf qildi. Voqealar rivojidan o'zib aytish mumkin, sayyohlik mavsumi boshlanadigan shu kunlarda mehmonxonada ta'mirlash ishlari avj pallada – sayyohlar uchun yanada qulaylik yaratilmoqda. Bu yumushga jalb etilgan ta'mirovchi ustalar ham xursand. Chunki halol mehnat ortidan ular yaxshigina daromad topmoqda. Qolaversa, uning mehmonxonasida ishlayotganlar ham kam bo'lishgani yo'q. Ularning biri yaqinda uy-joyli bo'ldi.

To'g'ri, 75 yoshli Elen xonim bu yerda muqim yashamaydi. Lekin har yili hayotining uch-to'rt yini Buxoroda o'tkazishni kanda qilmaydi. – Men Elen xonimning faoliyati misolida ikki xalq o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik aloqalari mustahkamlanayotganini ko'rganam, – deydi Jalol Ikromiy nomidagi

mahalla fuqarolar yig'ini raisi Zamira Sultonova. – Qolaversa, "Helene Oasis" joylashgan Arabon ko'chasidagi qo'ni-qo'shnilar uchun ham u qadrdon insonga aylangan. Ular bilan tez til topishgan Elen xonim ma'raka-mavridlardan qolmaydi. Turli bayramlar munosabati bilan ehtiyojmandlardan xayru saxovatini ayamaydi. Fransiyani O'zbekistondan minglab chaqirim masofa ajratib turibdi. Lekin Elen xonimning faoliyati ko'rsatmoqdaki, do'stlik rishtalarini bog'lash uchun bu muammo emas. Ayni paytda Prezidentimizning Fransiyada tashrif bilan bo'lib, shu davlat rasmiylari bilan muloqotlar o'tkazayotgani ham hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

Ijtimoiy himoya "INSONPARVARLIK YORDAMI TUFAYLI HAYOTGA QAYTDIM"

Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimiz salomatligi yo'lida joriy etilgan Davlat tibbiy sug'urta tizimi fuqarolarimizga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatini bermog'ga. Ayniqsa, kam ta'minlangan aholi kafolatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'lmoqda.



Surxondaryo viloyatida ko'plab oilalar davlatimizning bu g'amxo'rlikidan minnatdor. Jumladan, 71 yoshli qumqo'rg'onlik Eson Omonov ham ana shunday insonparvarlikdan bahramand bo'lgan yurdoshlarimizdan biri. – Uzoq yillar haydovchilik qildim, – deydi Eson bobo. – Endi nabiralirim kamolini ko'ray deganimda, yurak-ishemik kasalligini orttirib, boshim yostiqaq tegdi. To'g'risi, oilaviy sharoitimiz tufayli murakkab turdagi tekzor jarrohlik amaliyotiga ehtiyojmand bemorlarga berilgan imkoniyat asosida imtiyozli operatsiya qilindim. Barcha xarajat davlat tomonidan to'lab berildi.

Prezidentimizning 2021-yil 28-iyuldagi "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, elektron QR-kodli yo'llanma asosida davolangan imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarga sarflangan xarajatlari Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi tomonidan qoplab beriladi. Va asosiysi, endi bemorlarning poytaxtga borib ovora bo'lishlariga hojat qolmadi. Eng noyob turdagi murakkab jarrohlik amaliyotlari ham viloyat markazida o'tkazilayotgani bemorlarning mushkulini osonlashtirdi.

– Joriy yilda Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi orqali yuqori texnologiya amaliyotlarini bajarish uchun har oyda 300 million so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan, – deydi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokori Botir Mamasoatov.

Farhod ESONOVI
("Xalq so'zi").

NODIRA OPANING GULLARI

"Andijon gullari bog'i" gulchilik klasterining rahbari Nodiraxon Nasriddinovaning bog'da, hovli va uy devorlariga chirmashib o'sadigan noyob atirgullari bor. U yigirma yildirki, turli manzil-makondan sara gullarning urug'i, kurtaklari, qalamchalarini olib kelib sotish bilan birga, qo'ni-qo'shni va tanishlariga hadya etadi.

Mehnat va rohat

Mana, uch-to'rt yildirki, tadbirkorlik faoliyatini yanada kengaytirib, gul va ko'chat yetishtirish bilan shug'ullanib kelyapti. – Bizga "Yangi Andijon" massivini gulzorga aylantirish

didli buyurtmachiga italyan atirgullaridek mahsulot yetkazib bersakkina, biznesimiz muvaffaqiyat qozonadi. Buning uchun maxsus laboratoriyamiz faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir gulga ilmiy yondashamiz.

Inson o'z kasbini sevsa, uni mehr bilan amalga oshirsa mehnatidan baraka topadi. Gulchilikda o'z biznesini yo'lga qo'yib, ko'plab xotin-qizlarni ish bilan ta'minlagan Nodiraxon Nasriddinova davlatimizning yuksak mukofoti – "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. "Yil ayoli – 2024" respublika ko'rik-tanlovi



mas'uliyati yuklangandi, – deydi Nodiraxon Nasriddinova. – Shu kungacha 30 turdagi 20 ming tup gul, manzarali daraxt ko'chatlarini ekdik. Ular yilning to'rt faslida ham gullab, hudud ko'rkiga-ko'rk qo'shib turibdi.

Gulchilik ham kasb. "Andijon gullari bog'i" klasteri ishchilari nafaqat vodiy, balki mamlakatimizning boshqa viloyatlarida gulchilik biznesini rivojlantirish uchun yirik loyihalarga qo'l urgan. Xususan, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon va Toshkent shaharlarida barpo qilingan yashil makonlar xorijlik sayyohlarni ham maftun etayotir.

– Gulchilikning ham o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Chunki gulga doimiy g'amxo'rlik kerak, – deydi tajribali tadbirkor. – Turkiya, Italiyadan ko'chat, urug' olib kelganimiz o'z yo'lga, ammo ular yurtimiz iqlimiga moslashishi uchun gulchilik sir-sinoatidan yaxshi xabardor bo'lish lozim. Deylik, bir qarashda atirgul Italiyada ham atirgul. Nozik

g'olibi bo'lgan. – Mavsum paytida ishchilarimiz soni ming nafardan ortadi, – deydi gulchi opa. – Gul yetishtirib daromad topayotganlarning ko'pi shu sohada o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yishni xohlashadi. Shundan kelib chiqib Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida o'quv kurslari tashkil etganmiz. U gul va ko'chatchilikning sir-asrorini bilishdan tortib, daromad topishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olgan.

Kishida mehnatga ishtiyoq, havas bo'lsa, albatta, maqsadiga erishadi. Maqolamiz qahramoni Nodiraxon Nasriddinovaning faoliyati bilan tanisharkanmiz, izlagan imkon topishiga, harakat qilgan aslo kam bo'lmasligiga amin bo'ldik. U yaratayotgan go'zallik esa nafaqat daromad keltiradi, balki maftunkor chiroyi bilan hammani o'ziga jalb etmoqda.

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

SANDONDA JILOLANGAN GO'ZALLIK

Koson tumani markazidagi Shirinobod mahallasida mo'jazzina temirchilik ustaxonasi bor. U 1991-yilda kosonlik mashhur temirchilarning uchinchi avlod vakili Niyozqul Hamroyev tomonidan qurilib, ishga tushirilgan. O'tgan yillar mobaynida tuman markazi tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Niyozqul boboning ustaxonasida hech narsa o'zgarmagan: asosiy jihozlar va ish qurollari – o'choq, qo'ra, supa, cho'pkunda, sandon, bosqon, bolg'a, ombur, egov, charx va shu kabi bir nechta buyumlar.

Ibrat

Bu yil 75 yoshni qarshilagan usta temirchi Niyozqul Hamroyev shogirdlarini yoniga olib, doimo ish bilan band.

– Bobom usta Sattor butun umr temirchilik bilan shug'ullangan, – deydi Niyozqul bobo. – Bu hunarni undan o'rganganman. Maktabni tamomlab payvandchilikka o'qidim. Bir muddat jamoa xo'jaligida ishladim. O'ttiz to'rt yildan buyon sulolamiz, hunarini davom ettirib kelyapman. Shu hunar ortidan farzandlarimni tarbiyalab, uyli-joyli qildim. Obro-e'tibor topdim. Ellikka yaqin shogirdlar tayyorladim. Ularning ko'pchiligi mustaqil ravishda ishni davom ettirmoqda. Hozir ham yonimda bir nechta shogirdlarim bor. Shu kichkina ustaxonamizga ko'plab mashhur insonlar kelib, buyumlar xarid qilgan.

Ishlab chiqarish texnologiyalari yuqori darajada rivojlangan bugungi kunda qo'l mehnati bilan ko'p vaqt

va katta kuch sarflab yasalgan buyumlarga ehtiyoj qolmagandek tuyuladi. Niyozqul bobo Hamroyev esa aksincha, ko'lda yasalgan temirchilik buyumlariga talab yanada ortib borayotganini aytadi.

– Bir necha yil avval Qo'qon shahrida o'tkazilgan hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasida qatnashdim, – deb davom etadi hunarmand. – U yerga olib borgan buyumlarim orasida to'rt dona qo'lda yasalgan temir qulf ham bor edi. Belaruslik bir sayyoh ajablanib, uning nimaligini so'radi. Tushuntirib berganimdan so'ng "Shuni menka soting", deb turib oldi. Keyin bir arabistonlik sayyoh qolgan uchta qulfini ham sotib oldi.

Ustaning aytishicha, temirning olovda maromida toblanib, sandonda bolg'a damini yeb, kerakli shaklga kirganini, yetarlicha silliqilganini ko'zingiz ko'rib, qo'lingiz his etmasa, u buyumning mustahkam bo'lishi qiyin. Mo'jazzina ustaxonaning o'zida yuzdan ortiq tur va



o'lchamdagi buyumlar tayyorlanadi. Aksariyat buyumlar mijozning talabiga ko'ra u aytgan shakl va o'lchamda yasab beriladi. To'rt-beshta qolip bilan bu ishni uddalab bo'lmaydi. Temirchilik buyumlariga talab hech qachon yo'qolmaydi. Bu hunar yana asrlarni asrlarga ulab davom etaveradi. Faqat temirchi ham biron tadbirkor bo'lsa, bozor talablaridan kelib chiqqan holda mahsulot tayyorlasa, daromadi yanada oshishi muqarrar. Va nima bo'lganda ham, usta nomi bilan elga mashhur bo'lgan Niyozqul bobo Hamroyev yasagan buyumlar bugungi yosh hunarmandlar orasida yuksak did, beqiyos mahorat, kasbga muhabbat va o'lmas qadriyatlar ramzi bo'lib qolaveradi.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

E'TIBORDAN CHETDA QOLGAN "CHINORTAGI"

Farg'onaning so'lim tabiati, xushmanzara qishloqlari o'ziga xos "tashrif qog'ozidir". Vodil qishlog'ida joylashgan, 3,5 gektar maydondan iborat "Chinortagi" madaniyat va istirohat bog'i yaqingacha shinam dam olish maskani bo'lgan. Afsuski, keyingi yillarda ushbu fayzli bog' ko'z o'ngimizda to'kilib bormog'ga. Shu bois dam olishga keluvchilar soni keskin kamaygan.

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Holbuk, bir paytlar Shohimardondagi dam olishga mo'ljallangan joylar ham mazkur bog' tasarrufida bo'lgan. Purviqor tog'lar bag'ridagi Shohimardon, Yordon qishloqlariga keluvchilar avval "Chinortagi"dagi Xo'ja Ahmad Valiy yodgorligini ziyorat qilishgan. Ming yillik chinorlardan hayratlanib, "Otlar choyxonasi"da osh yetish uchun navbatda turishgan. Nahotki, bu kunlar o'tmishga aylangan bo'lsa?

– Faqat yoz mavsumidagina faoliyat ko'rsatamiz. O'tgan yili ham yozda ishlab, davlat g'aznasiga 30 million so'm mablag' o'tkazdik,

– deydi "Chinortagi" madaniyat va istirohat bog'i rahbari Adhamjon Mallayev. – Kuz, qish oylarida bog' hududi huvullab qoladi. Yozda issiq, qishda sovuq bo'ladigan eski binoda ishlashning imkoni yo'q.

Bog' hududida faoliyat ko'rsatayotgan 8 ta attraktsionning ba'zilari 40 yil oldin olib kelingan. Texnika xavfsizligi, xizmat ko'rsatish sifati talabga javob bermaydi. Ularning atrofidagi himoya to'siqlari vazifasini bajarayotgan temir panjaralar eskirib qolgan. Dam oluvchilar o'tishi mumkin bo'lmagan xavfli hududlar qo'lbola usulda to'sib qo'yilgan. Bog'



hududida birorta chiqindi qutisi mavjud emas. Ariqlar, yo'laklardagi xunuk manzaradan kayfiyatingiz buziladi. Bundan 63 yil oldin qurilgan, ma'nan eskirgan uchun renovatsiya dasturiga tushgan 3 ta ikki qavatli uy ham bog' manzarasini buzib turibdi.

– Bog' hududida 750 tupga yaqin chinor, qayin, baqaterak daraxtlari bor, – deydi bog' xodimasi Arofat Mallaboyeva. – "Yashil makon" umumhimmaliy loyihasi doirasida yangi manzarali daraxtlar ekilyapti. Lekin hududning tabiiy iqlim sharoitini

o'rganish uchun ekologiya sohasi mutaxassislariga ehtiyoj seziladi.

Bog' atrofini ko'klamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari ko'ngildagidek emas. Vaholanki, yilning to'rt faslida bu yerdagi ariqlarda suv oqib turadi.

– Bog' hududida muzey tashkil qilib, tarixiy eksponatlar va ma'lumotlar yig'ish bilan shug'ullanib kelyapman, – deydi mehnat faxriysi Xoldorali Qulfidinov. – Bu joy Farg'ona muzeyi filialiga aylantirilsa, nur ustiga nur bo'ladi.

Nahotki, tuman tarixi va

madaniyatiga oid eksponatlar yig'ib, muzey faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan fidoiy muallimni qo'llab-quvvatlaydigan birorta tadbirkor topilmasa? Bundan ham achinarlisi, bog'da sobiq ittifoq davrida mehnat tufayli dovruc qozongan Hamroqul Tursunqulovga o'rnatilgan haykalga olib boradigan yo'llar ham ta'mirlanib. Shu haykal atrofiga gullar ekib, ziyoratchilar uchun katta o'rindiq o'rnatish unchalik katta mablag' talab qilmasa kerak? Afsuski, bu manzara yurt qahramonlariga bo'lgan nazavurimizni o'zgartiradi.

Tuman hokimligi mutasaddilarning ma'lum qilishicha, Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan istirohat bog'i hududida qurilish-ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan. Farg'ona tumanining turizm manzili bo'lgan "Chinortagi" madaniyat va istirohat bog'ining nufuzi yana tiklanishiga umid qilib qolamiz.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Joriy yilning 14 – 16-mart kunlari O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida "Hind kinosi kunlari" o'tkaziladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuksal olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyotga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyotga kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 07.20 Topshirildi — 08.00 1 2 3 4 5 6